

## MADANIYAT VA SAN'AT SOHASI RIVOJIDA MILLIY MUSIQA SAN'ATINING O'RNI

**Ubaydov Oltinbek Olim o'g'li,**  
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
Xalq ijodiyoti fakulteti, MSMTEB ta'lif yo'nalishi 4-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada madaniyat va san'at sohasi rivojida o'zbek xalq musiqa san'ati uning jamiyatda tutgan o'rni xususida fikr-mulohazalar bildirib o'tilgan. Shuningdek, o'zbek xalq musiqa san'atida milliy sozlarning o'rni haqida batafsil ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'z:** musiqa san'ati, milliy soz, qadriyat, milliy meros, shashmaqom, madaniyat hayot, islohot

## НАЦИОНАЛЬНОЕ В РАЗВИТИИ КУЛЬТУРЫ И ИСКУССТВА

### МЕСТО МУЗЫКАЛЬНОГО ИСКУССТВА

**Убайдов Олтинбек Олим ўғли,**  
Государственный институт искусства и культуры Ўзбекистана  
студентка 4 класса факультета народного творчества МСМТЭБ

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль узбекской народной музыки в развитии культуры и искусства в обществе. Также дана подробная информация о роли национальных напевов в искусстве узбекской народной музыки.

**Ключевые слова:** музыкальное искусство, национальная песня, ценность, национальное достояние, шашмаком, культура, быт, реформа

**NATIONAL IN THE DEVELOPMENT OF CULTURE AND ART****THE PLACE OF MUSICAL ART****Ubaydov Oltinbek Olim o‘g‘li,**

State Institute of Art and Culture of Uzbekistan

4th grade student of the Faculty of Folk Art, MSMTEB

**Abstract:** This article discusses the role of Uzbek folk music in the development of culture and art in society. Also, detailed information about the role of national tunes in the art of Uzbek folk music is given.

**Key word:** musical art, national song, value, national heritage, shashmaqom, culture, life, reform

O‘zbek xalqining musiqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqa, xalq bastakorlik yo‘llari, shuningdek, folklor - havaskorlik musiqiy merosi singari shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik ko‘rinishlari bir-birini to‘ldirib keldi. Ushbu musiqiy merosimiz bugungi kunimizda ham ma'naviy madaniyatimizning bir bo‘lagi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga, urf-odatlarimizga, unutilayozgan, tarixan qadrli an'analarimizga bo‘lgan e’tibor, ularni yangidan isloh etish jarayoni ustivor yo‘nalish kasb etdi.

Milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, ma'naviy boyligimizga bo‘lgan e’tibor davlat miqyosiga ko‘tarildi. Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq otabobolarimizdan, ajdodlarimizdan qolgan ma'naviy boyliklarni, jumladan, musiqiy madaniyatni avaylab asrash, tiklash borasida, qolaversa, zamon bilan hamohang qadam tashlash borasida talaygina ishlar qilindi. Bu borada o‘tgan ajdodlarimiz bizlarga meros qilib qoldirib ketgan ulkan ma'naviy boyligimiz asosiy omil bo‘lib

xizmat qilmoqda.

“Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish - halqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mus”tahkam poydevoridir” mavzusida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning davlatimiz ziyorilar bilan uchirashuvida: madaniyatimiz va san’atimizni rivojlanish hamda bu boradagi ijobiy tendensiyalar bilan birga, ayrim salbiy holatlar, ularning jamiyat hayotidagi ta’sirini xolisona va tanqidiy baholab, o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar va ularni bartaraf etish. Ijodiy uyushmalar, Madaniyat vazirligi hamda uning tarkibidagi birlashma va tashkilotlar faoliyatini chuqur tahlil etib, ijodkor ziyorilarning bugungi kunda jamiyat hayoti, islohotlar jarayonidagi o‘rni va vazifasini oshirish deb ta’kidlab o’tdilar. Mustaqil taraqqiyot yillarida to`plangan tajriba, dunyoqarash jamoatchiligi o`zbek modeli deya e’tirof etgan o`zimizga mos taraqqiyot yo`li-kelajagi buyuk davlat barpo etish borasida amalga oshirilayotgan barcha tarixiy o`zgarish va yangiliklar xalqimiz qalbi ongi va g`ururiga ulkan ta’sir ko`rsatmoqda.

Tarixdan ma'lum, ma’naviyatimizning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan musiqiy madaniyatimiz, an'anaviy qo‘shiqlarimiz, maqom ijrolari hamisha xalqimizning kundalik hayotida ma’naviy ozuqa sifatida e’tirof etib kelingan. Xalq og‘ir kunlarida musiqadan najot izlagan, xursandchilik kunlarida ham qo‘sinq va musiqa ularga hamroh bo‘lgan.[1] Zero, bugungi muborak mustaqillikka erishgan kunimizda, o‘zligimizni anglab borayotgan bir davrda ulkan ma’naviyatimizning bir bo‘lagi bo‘lgan, ota-bobolarimizdan meros bo‘lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an'anaviy qo‘shiqlarimizga murojaat qilish tabiiy bir holdir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy musiqa va qo‘shiqlarimiz odamlarni hamisha iymonga, mehr-oqibatga, odamiylikka chorlab kelgan. Bugungi kunda ham shu dolzarbligini yo‘qotmagan holda mustaqillikka, mehnatkashlar ongini shakllantirish yo‘lida, barkamol avlod tarbiyasida vosita sifatida asosiy

omillardan bo‘lib qolaveradi. Ashula, musiqa, raqs, folklor ijrochiligi san'ati milliy musiqa san'atining xalq hayoti va ijodi bilan chambarchas bog‘liq holda paydo bo‘lgan va rivojlanib kelgan qadimiy san'at turlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, xalqimizning an'anaviy ruhdagi qo‘sishlari o‘lmas meros bo‘lib, barcha davrlardagidek bugun ham «labbay» deb javob bermoqda. Lekin shu bilan bir qatorda faqat tarixga sajda qilmay, bugungi kunning ruhiga mos tarzda qo‘sishlar yaratish esa milliy mafkuramizni rivojlantirishda bosh omillardan bo‘lmish musiqiy sanhat bilan shug‘ullanayotgan barcha mutaxassis va sanhatkorlarga muhim vazifa qilib qo‘yilishi tabiiyidir. Mamlakatimiz tamomila yangi jamiyat, yangi turmush va yangi hayotni boshlab yubordi. Odamlarimiz qalbi, tafakkuri va tasavvurida o‘zgarishlar paydo bo‘ldi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlariday, ma’naviyat masalasi millat tarixi, axloqiy va diniy qadriyatlar, madaniy meros, an’ana va rasm- rusumlar, milliy mafkura, vatanparvarlik va insonparvarlik, milliy o‘zlikni anglash singari juda ko‘p omillarni o‘z ichiga oladi va pirovardida, inson shaxsini belgilashda asosiy mezon vazifasini bajaradi.

«Xalqimizning kelajagi, - deb yozadi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov, - eng avvalo, uning o‘ziga, ma’naviy qudratiga va milliy ongingin ijodiy kuchiga bog‘liqidir. Moddiy farovonlikka tabiiy intilish millatning ma’naviy va aqliy o‘sish ehtiyojiga g‘ov bo‘lmasligi lozim. Ma’naviylik va ma’rifiylik xalqimizning ko‘p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchli o‘ziga xos xususiyati bo‘lib keldi».

Ushbu tamoyillardan kelib chiqib, ma’naviy jabhalarning barcha yo‘nalishlari o‘zlarining maqsad va vazifalarini belgilab olishlari zarur bo‘ladi. Ayniqsa, bu jabhada musiqiy madaniyatning ma’naviy hayotdagi o‘ziga xos o‘rnini baholash, uning tahsirchanlik kuchini mustaqillik mafkurasi tomon yo‘naltirish uning bosh mezoni ekanligini anglash muhimdir. Madaniy hayotda bugungi kunda shu tamoyilga ko‘ra siljishlar kuzatilmoqda. Ijodkorlarning fikri- zikri ana shu tamoyillar yo‘liga yo‘naltirilgan desak, xato qilmagan bo‘lamiz.

Brundtland komissiyasining 1987 yildagi ta'rifiqa muvofiq barqaror taraqqiyot bu - «hozirgi zamon talablarini qondiradigan, kelgusi avlodning o'z shaxsiy talablarini qondirishga tahdid solmaydigan»[2] taraqqiyotdir. Barqaror taraqqiyot tegishli xalqning nafaqat iqtisodiy muvozanati, balki uning iqtisodiy gullab-yashnashi, atrof muhitning yuqori darajasi va ijtimoiy tenglikning birgalikda (sinxron) olib borilishini bildiradi[3] – bu yorqin kelajakni ta'minlashda o'ziga yarasha qiyinchilik bilan erishiladi.

Musiqiy madaniyat o'zining serqirraligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, o'zining chuqur ildizlari qadimgi davrlarga yetib boradigan o'zbek xalqining boy musiqa merosi hozirgi kundalik hayotimizdan ham tushgani yo'q. U xalq ijodining yuksak namunalari, folklor ijrochiligi, kuy tuzilishi, mazmunan rivojlangan cholg'u va ashula asarlari, dostonlar ijrochiligi hamda murakkab ijrochilik turkumi atalmish maqom musiqasini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, xalq musiqiy madaniyatida o'zlarining barcha davrlarda sezilarli hissalarini qo'shib kelayotgan xalq bastakorlarining ijodi ham salmoqli o'rin tutadi.

Cholg'u musiqa ijrochilik san'ati o'zbek xalqining boy musiqa madaniyatida salmoqli o'rin tutadi. O'tmish musiqiy risolalari va yozma manbalari hamda tasviriy san'at yodgorliklarida aks ettirilgan cholg'u sozlar qadim zamonlardan vujudga kelganligi va ularning xalq orasida keng tarqaganligidan ko'rishimiz mumkin. Va albatta davrlar osha ularning birmuncha takomillashganligidan darak beradi.

O'rta asrga oid va undan keyingi davrlarda yaratilgan musiqa risolalarda va ularda ijro etiladigan musiqa asarlari haqida ma'lumotlar talaygina. O'rta Osiyoda yashagan buyuk olim, faylasuf Abu Nasr Farobiyning musiqa haqidagi risolasida shunday deb yozgan: "Kishi ovoziga yaqin tovush chiqaradigan cholg'u sozlar – g'ijjak, rubob, nay va surnaydir; ushbu cholg'ular inson ovozga juda yaqinligini ta'kidlaydi. Qolaversa cholg'u sozlar ashulaga ham jo'r bo'ladi, ashulaning boshlang'ich musiqasini va uning orasidagi cholg'u qismlarini hosil qiladi".

Farobiyning bergen ta'riflari hozirgi davrga qadar saqlanib, va rivojlanib kelmoqda.

XVI- XVII asrlarda yashab ijod etgan buxorolik Najmiddin Kavkabiy va Darvish Ali Changiy risolalarida ham cholg'u sozlarining mukammal ro'yxati, ularning kelib chiqishi va sozandalar haqida qimmatli ma'lumot berilgan. Darvish Ali Changining o'zi ham rebob (rubob o'sha davrda rebob deb atalgan) chalgan. O'tmishda rubob simlari beshta bo'lganligi, ammo uning to'rtta tori ipakdan va beshinchisi esa kumush sim taqilganlini ko'rish mumkin.

Abdurauf Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida rubob xaqida "Xorazm shohlar davrida usta Mahmud tomonidan yasalgan" ma'lumotlar keltirilgan. Xulasa o'rnida shuni aytish mumkinki, rubob qadimdan Sharq xalqlariga xos cholg'u sozi sifatida, qadrlanib shu kunga qadar xalqning sevimli musiqiy cholg'ulari qatoriga kirgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S.M.Veksler. Ocherki istorii o'zbekskoy muz'kal'noy kul'turi. Toshkent 2020

2. T.S.Vizgo "Razvitiya muzikal'noy kul'turi O'zbekistana i yyo svyazi s ruskoy muzikoy" Moskva 2017.

3. T.Ye.Solomonova. "O'zbek musiqasi tarixi". Toshkent "O'qituvchi", 2021.